



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

O'quvchilar og'zaki va yozma nutq savodxonligini oshirishning samarali usullari

Qodirova S.D. Surxondaryo viloyati Pedagogik mahorat
markazi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Bola nutqini rivojlantirish, eng
avvalo, til qobilyatini
shakllantirishni talab qiluvchi
muloqot shakllarini
rivojlantirish demakdir.
(A.A.Leontyev)



O'quvchining bilimi, dunyoqarashi
rivojlangan sari, uning nutqi va
tafakkuri ham muttasil o'sib boradi.
Ravon, ixcham, ta'sirli nutq tinglovchiga
huzur bag'ishlaydi. Maktabning asosiy
vazifalaridan biri o'z o'quvchilarini ana
shunday so'zlashga o'rgatishdir.

NUTQIY SAVODXONLIK

- Og‘zaki NS-O‘quvchilar o‘zgalar bilan muloqotda til imkoniyatlaridan to‘liq, to‘g‘ri va aniq foydalana olishlari.

Muammoli vaziyatlarda avvalambor so‘z imkoniyatlaridan foydalangan holda yechim topa bilishlari va h.k.o.

Tavsiya etiladigan metodlar

- “Intervyu”

O‘g‘zaki matn tuzish

Fotosuratga ta’rif

Rolli o‘yinlar

Tasvirdan tafakkurga

Maqol aytish

Tez aytish

“So‘zlarni o‘rniga qo‘y” o‘yini

Suratlar so‘zlaganda

- YOZMA NS- O‘quvchi o‘z fikrlarini betakror va savodli ifodalarkan, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishi

Tavsiya etiladigan metodlar

- MYaBT-4

“Yadro”

Matnni kengaytirish

Fotosurat asosida matn tuzish

Tasvirdan tafakkurga

So‘z sehri

Ikki qismli kundalik

Orzular xaritasi

“**So‘zlarni o‘rniga qo‘y**” o‘yini

Suratlar so‘zlaganda

“Suratlar so‘zlaganda” texnologiyasi

O‘quvchida og‘zaki va yozma nutq savodxonligi, tafakkurini rivojlantiradigan metodlar sirasiga kiradi.

1. Guruhlarga rangli qalamlar va yozish uchun plakatlar tarqatiladi.
2. Guruh a‘zolari plakatga istagan rasm, shakllar va chizmalarni 3-5 daqiqa ichida chizishadi.
3. Shundan so‘ng plakatlar boshqa guruhlariga uzatiladi.
4. Ikkinchi guruh a‘zolari plakatdagi rasm, shakllar va chizmalar asosida 10 daqiqa ichida, unga mos bog‘lanishli matn tuzadi.
5. Matn yozilgan plakatlar rasm, shakllar va chizmalarni chizgan guruhlarining o‘zlariga qaytarib berilganda, ular eng kreativ yondashib yozilgan matnlarni e’tirof etadilar.



“SO‘ZLARNI O‘RNIGA QO‘Y” O‘YINI

Kech, masala, qoldik, shundaki, baribir, biz
Fikri, zavol ko‘rmaydi, odam, bobomning,
shuki, kamtar.

O‘qisa, ko‘p, maqsadiga, erishadi, oson, kim, o‘sha.

Bo‘lsa, kimki, undan, bezor, dilozor, el-u yurt.

Havas qiladi, borki, shunday, odamlar, hamma, ularga.

Birgina shu surat asosida 2 ta metodni amalga oshirish mumkin.

1. “Fotosuratni o‘qish”.

2. “Tasvirdan tafakkurga” metodi.

Metod yakunida bir-biridan tubdan farq qiladiga 2 ta matn hosil bo‘lishini o‘ziyoq o‘quvchida tafakkurni boyitishga xizmat qilgan metod ekaniga dalil bo‘ladi.

Topshiriq! Toping-chi, Qaysi matn qaysi metodda bajarilgan?

Aytgan-cha, sarlavhaniyam qo‘ying.



Bir tup daraxt quyosh nurlarini
barglaridan o'tkazib turibdi.
Daraxt bir necha yillik ekani
rasmda aks etgan. O'zidan
ancha uzoqda turgan
daraxtlarga qarab turgandek
go'yo. Demak, daraxtning
yoni bo'sh ekan, atrofiga
daraxtlar ekish kerak.



Inson umrini qanday yashab
o'tayotganiga qarab, nimalargadir
qiyoslashadi. "Chinor"ga
mengzalgan buyuk insonlarni
bilingki u albatta buyuk ishlar
qilgan. To'g'ri, ba'zan bu yo'lda
yo'lg'iz ham qoladi inson, ammo
yaxshiyam quyoshdek insonlar
bor, uzoq masofada bo'lishsa-da,
sizga o'z ilqliklarini ulashib
turishadi.

“SO‘Z SEHRI” TEXNOLOGIYASI

1. O‘quvchilarga 5 ta undosh va 2 ta unli harf tanlashlari so‘raladi.
2. 2 daqiqada o‘zlari tanlagan harflar misolida so‘zlar topishlari, harflar takror bo‘lishi mumkin, ammo boshqa harflar ishtirok etmasligi kerak.
3. O‘quvchilar hosil bo‘lgan so‘zlardan biriktirib 5 daqiqada matn tuzishlari kerak.
4. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda sarlavha qo‘yiladi.
5. Eng yaxshi matn yaratgan o‘quvchining ijodiy ishi chiroyli so‘zlar bilan rag‘batlantiriladi.

Eng qizig‘i bu metodda ishlagan o‘quvchilarda ijodkorlik, mas’uliyat va tafakkur rivojlanadi.




“MMM-MUSIQA, MATN, MATEMATIKA” texnologiyasi



Bu metodni qo'llash uchun avvalambor mavzuga moslashtirib SOKIN mumtoz MUSIQA tanlab olinadi, imkon bo'lsa bitta cholg'u asbobi bilan ijro etilgan bo'lsa bolaning kuyga, tuyg'uga ruhan moslashib, ijod qilishi oson bo'ladi, u kuy va tuyg'uni his qilarkan ishonavering, boladan o'zingiz kutmagan ijodkorlik namunasini olasiz(mumtoz kuy, Motsart, Betxoven, Vivaldi, Shopen, Yanni, Bax kabi). Masalan, A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari tahliliga matn tuzdirsak "Cho'li iroq" kuyi ta'siri yozilgan matn va an'anaviy holatda tuzdirilagan matn bir-biridan tubdan farq qilishini kuzatamiz



Musiqqa („muzalar san’ati“) –Musiqqa insonning turli kayfiyatlari (masalan, ko’tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g’amginlik, xavf-qo’rquv va boshqalar) ni o’zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqqa shaxsning irodaviy sifatlari (qat’iyatlik, intiluvchanlik, o’ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning ushbu ifodaviy tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari – [Pifagor](#), [Platon](#), [Aristotel](#) va Sharq mutafakkirlari – [Forobiy](#), [Ibn Sino](#), [Jomiy](#), [Alisher Navoiy](#), [Bobur](#), [Kavkabiy](#), tasavvuf arboblari – [Imom G’azzoliy](#), Kalobodiy Buxoriy va boshqa tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan



Ta'kidlash kerak-ki, ayrim davlatlar va fanda musiqa o'quvchi ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish, o'zni kelsa davolash yo'lida ham foydalanishadi. Masalan, ilm o'rganishga qiynalayotgan bolaga Baxni musiqasini eshittirish tavsiya etiladi. O'zim shaxsan dolzarb mavzuda maqola yozmoqchi bo'lsam Motsart kuylari "yordamga keladi".

Texnologiyani amalga oshirish jarayonini ko'rib chiqamiz.

1. O'qituvchi tomonidan mavzuga tanlangan musiqa qo'yiladi(qurilma tanlash ixtiyoriy, ovoz sifatli bo'lishi kerak).
2. O'quvchi 2 -3 daqiqa kuyni diqqat bilan eshitgach, kuy ta'sirida 15-20 ta miqdorda so'zlarni yozadi.
3. 4-5 ta raqam va bitta o'zi istagan matematik amalni yozadi.
4. Kuy ta'sirida yozilgan so'zlar va matematik raqamlar, amaldan foydalanib matn tuziladi.
5. O'zi tuzgan matn mazmunidan kelib chiqqan holda mavzu tanlaydi.
6. Ajratilgan vaqtda tezkorlik bilan bo'lgan o'quvchilar o'ng qo'llarini ko'tarishlari orqali aniqlanadi. Ijodiy ishda ilg'or bo'lgan o'quvchilar "Barakalla", "Ajoyib", "Bo'lajak yozuvchi" "Ijodkor o'quvchi" kabi ruhlantiruvchi so'zlar bilan rag'batlantirilib boriladi.



Agar imkon bo'lsa ajratilgan vaqtlar taqsimoti o'qituvchi tomonidan oldindan aytilgan bo'lishi va barcha o'quvchilar ko'z o'ngida o'zlari vaqtlari nazorat qilishlari uchun soat qo'yilgan bo'lishi kerak. Ta'kidlash kerak-ki, bu vaqt oralig'ida kuy sokin holatda yangrab turmog'i lozim. Topshiriqni bajarib bo'lgan o'quvchilar ham kuyni eshitib turish orqali uning ta'sirida hislar olamida bo'lmog'i lozim.

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi o'quvchilarga “ Kuy ta'sirida nimani his qildingiz?”, “Hislarni, tuyg'ularni so'zdan tashqari ham ifodalash usullari bormi?”, “Kundalik hayotda eshitib yurgan va dars davomida eshitgan kuylaringiz orasida qanday farqni his qildingiz?” kabi savollar bilan murojaat etadi. Shundan so'ng topshiriqni birinchi bajargan o'quvchilar o'z ijod namunalarini o'qib berishadi, yoki o'quvchilarning ijodiy ishlari tahlilini o'qituvchi o'ziga qulay tartibda o'tkazadi.



O'zgalar mehnatiga adolat nuqtai nazaridan baho bera olish ko'nikmasi, tuyg'ulari rivojlanishi uchun "Chehralar(smaylik)" usulidan baholashda foydalanishimiz mumkin. Tabassum-(yoqdi). Deylik, besh nafar o'quvchi topshiriqni o'rtoqlaridan avval bajarib bo'lgan bo'lsa, ular o'z matnlarini o'qib berishadi. Qaysi o'quvchini yozgan matni tabassum chehrasini ko'proq yig'sa o'sha o'quvchi e'tirof etiladi. O'quvchilar esa 5 o'quvchining matnidan bittasini tanlash huquqiga ega bo'ladi. Bu tarzda o'quvchilarning matnini o'quvchilar tomonidan baholanishi ularda adolat, tahlil, matnni tushunish kabi layoqatlarni shakllantirilishiga xizmat qiladi. O'qituvchi esa o'z navbatida o'quvchilarning ishlarini tahlil qilishda professional yondashib matnlarning yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilish orqali o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy savodxonlikni targ'ib va tahlil qiladi.

Ta'kidlash kerak-ki, bir kuy ta'siri ostida har xil matnlar ijod qilinishi tabiiy holat. Chunki, Alloh bandani betakror qilib yaratgan, tafakkur qilishi kerakligiga da'vat etarkan, "iqro", ya'ni "o'qi" deb buyruq bergan.

MUSHOHADA UCHUN!

O'zim o'quvchilik va talabalik davrimda baholashning inson ruhiyati va kayfiyatiga ta'sirini unchalik his etmagandirman, ammo yillar o'tib o'quvchilar va o'qituvchilar hayotiga baholash va taqqoslashning naqadar ta'sir etishini ko'rib, rosti ayrim rivojlangan mamlakatlar bekorga bolani boshlang'ich ta'limda baholamasliklarini his qilib boshladim. Nima deysiz hurmatli olimlar, psixologlar va metodistlar, amaliyotchilar jamoasi? Balki rostdan bolani ma'lum sinfgacha baholamasdan, rag'batlantirib, yo'naltirib, kuzatib tahlil qilish amaliyotini sinab ko'rish kerakdir.





Hurmatli ustozlar! Biling, eng buyuk va mashaqqatli
kasbning egasi- SIZ! Siz betakror, BILIMLI,
izlanuvchan, mehrli va e'tiborli bo'lsangiz, albatta
KELAJAK AVLOD SIZDAN MINNATDOR BO'LADI.
E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT!